

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

SODIQOVA BARNO XO`JANAZAR QIZI

**OLIY TA`LIM MUASSASIDA JISMONIY TARBIYA DARS
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUSIQIY RITMIK
GIMNASTIKANI JORIY ETISH USLUBIYATI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Xasanova Sh.R

Urganch-2017

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
Ibob	Adabiyot manbalariga ko'ra ishning o'rganilish holati.	
1.1.	Musiqiy ritmik gimnastika haqidagi tarixiy ma'lumotlar.....	5
1.2.	Musiqiy ritmik gimnastika mashqlarini tashkil qilish, rejalashtirish va guruhlashtirish.....	6
1.3.	Musiqiy ritmik gimnastika mashqlarining mazmuni va ahamiyati...	12
1.4.	“Aerobika” atamasi va aerobikaning kelib chiqishi hamda ritmik badantarbiya vazifalari.....	15
1.5.	Musiqiy ritmik gimnastika mashqlariga ko'rsatma va qarama qarshi ko'rsatmalar hamda shug'illanuvchilar uchun tibbiy nazorat	19
Iibob	Tadqiqotning vazifalari uslublari va tashkil etilishi.	
2.1.	Tadqiqotning vazifasi.....	28
2.2.	Tadqiqot uslublari.....	28
2.2.1.	Uslubiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlar tahlili va ularni umumlashtirish.....	28
2.2.2.	Pedagogik kuzatuvlar.....	29
2.2.3	Pedagogik testlash.....	29
2.2.4.	Pedagogik tajriba.....	29
2.2.5.	Matematik statistik uslublari.....	29
2.3.	Tadqiqotning o'tkazilishi.....	29
IIIbob.	TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI	
3.1.	Jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirishda musiqiy ritmik gimnastika mashg'ulotlarini inson tanasiga ta'siri o'ganish uslublari.	31
3.2	Jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirishda musiqiy ritmik gimnastika mashg'ulotlarida qo'llanadigan uslublari, amaliy tavsiyalar, kompleks mashqlar majmuini ishlab chiqish.....	34
3.3.	Tadqiqot natijalari va tahlili.....	46
	Xulosa va amaliy tavsiyalar.....	51
	Foydalangan adabiyotlar.....	55

KIRISH

O'zbekiston mustaqil Davlat maqomiga erishgandan so'ng qisqa davr ichida barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida ham asrlarga teng progressiv o'zgarishlar ro'y berdi, "Olimp cho'qqilarini zabt etishga qodir" isloxatu – bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda xalqimiz hayotida o'z aksini topib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun (1992, 2000, 2015), Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 271-sonli Qarori, futbol va tennisni rivojlantirish hamda kurashni qo'llab-quvvatlash haqidagi maxsus Qarorlar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Sog'lom avlod"ni tarbiyalashga doir Davlat dasturi kabi kontseptual hujjatlar barkamol avlodni tarbiyalash garovidir. Mamlakatimizning turli mintaqalarida halqaro standartlarga mos ulkan sport majmualarini barpo etilishi, o'zbek sportchilarning Jahon, Olimpiya va Osiyo musobaqalarida yuksak natijalarni qo'lga kiritib kelayotganligi, bir tomondan yuqorida qayd etilgan Davlat hujjatlarining aks-sadosi bo'lsa, ikkinchi tomondan yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni Davlat siyosatining ustivor yo'nalishlari pog'onasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Shunday ekan, o'zbek sportining kelajak istiqbolini ta'minlash va uni xalqaro miqyosga mos, raqobatbardosh darajaga olib chiqish ushbu sohani ilmiy-texnologik asosda taraqqiy ettirishni taqazo etadi.

Ishning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqimizning boy, ma'naviy solohiyati va umuminsoniy qadryatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodi, ilm-fan va texnologiyaning so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Mamlakatimizni madernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustivor vazifamizdir", hamda "Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyotini va

xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” mavzusidagi ma’ruzasini sportga taqqoslab o’rganish bugungi kunning dolzarb mavzusi xisoblanadi.

Oliy o’quv yurtlari jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirishda musiqiy ritmik gimnastikaning o’rni beqiyosdir, chunki musiqiy ritmik badantarbiya shug’ullanuvchilarni kayfiyatini ko’taradi, his-tuyg’ularning ijobiy holatini yaxshilab, harakatlarni yanada g’ayrat bilan bajarishga undaydi. Musiqiy ritmik gimnastika mashqlari yordamida harakatlarni go’zalligini, qaddi-qomatni to’g’ri shakillantirishda o’rni beqiyosdir, bundan tashqari bir vaqtning o’zida insonning ruhiy omiliga ta’sir ko’rsatadi va shu yerda ritmik badantarbiyaning yosh avlod tarbiyasidagi o’rni va ahamiyati katta va bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muommaning o’rganilganlik darajasi. Dastlab musiqiy ritmik tarbiyani joriy etish bo’yicha N.L.Alekseeva “Raqs va badantarbiyalar uyg’unligi” deb nomlangan dastur ishlab chiqdi. Alekseevaning mashqlarida asosiy o’rin – uyg’unlik bilan rivojlanib kelayotgan gavda uchun mashqlar tanlashga berilgan. Alekseeva “Harakatlar va musiqa orasida ritmik uyg’unlik bo’lishi kerak” – deb aytgan. G’arbda musiqiy ritmikani rivojlantirishda quydagilar o’z hissasini qo’shgan: Djeyn Fonda, uning zamonaviy ritmik mashqlarining asosiy boshlovchisi deb hisoblashadilar (AQSH); Sidni Rom, Marlen Sharel (Germaniya). Djeyn Fondning ritmik mashqlarining usuli asosan atletik yo’nalishga yo’naltirilgan va yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo’lishlarini asoslab o’tganlar.

Karimov M.K. 2005 yil chop qilgan “Xoreografiya mashqlari badiiy gimnastika va xalq harakatli o’yinlari” kitobida musiqiy ritmika, badiiy gimnastika va harakatli o’yinlar bilan uyg’unlashtirib yoritishga harakat qilgan.

Aynan jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirishda musiqiy ritmik gimnastikani qo’llab ish ko’rilgani adabiyotlarni tahlil qilishda ham uchramadi.

Ishning maqsadi. Bugungi kunda ritmik badantarbiyani uyg’unroq jonlantirish, shu orqali sog’liqni har tamonlama mustahkamlash va saqlash,

jismoniy rivojlanishni yaxshilash, chiniqtirish, organizmni tashqi muxitini noqulay bo'lgan sharoitlarga musiqiy ritmik gimnastika orqali chidamliligini oshirish.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot Urganch Davlat Universiteti pedagogika fakulteti 2-kurs talabalarida olib borildi.

Tadqiqot predmeti. Jismoniy tarbiya darslarini kuzatish orqali taqqoslab o'rganish va dars samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Adabiyotlarni nazariy tahlil qilish orqali amalga oshirildi.

Ritmik gimnastika bu umumimqoniyatli, hammaga mos aholini yuqori darajada samarali shug'illanirish mumkin bo'lgan jismoniy sog'lomlashtirish shaklidir. Barcha jismoniy sog'lomlashtirish shakllari kabi ritmik gimnastika ham sog'lomlashtirish bo'yicha yugurish, suzish va bir qator nazariy va amaliy vazifalrni amalga oshiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Jismoniy tarbiya darslarini musiqiy ritmik gimnastika mashqlari bilan uyg'unlikda olib borilsa, talabalar kayfiyatni yaxshilanishi, sog'lom kun tartibini shakllanishi va ritmik mashqlarni barchaga ijobiy ta'siri o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Jismoniy tarbiya darslarida musiqiy ritmik gimnastika mashqlaridan unumli foydalanilgan holda darslarning samaradorligini oshirish, pedagogik jihatdan tahlil qilish, hamda yangiliklar yaratishga erishish orqali talabalarni qiziqishini orttirish.

Tadqiqotning farazi Oliy o'quv yurtlari jismoniy tarbiya darslarida musiqiy ritmik gimnastikani qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish, talabalarni qiziqishini orttirish, qoshimcha mashg'ulotlar tashkil qilish va talabalarni mashg'ulotlarga jalb qilish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va xajmi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, 35 nomdagi foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo'lib 57 betda bayon etilgan.

I-bob. Ishning adabiy manbalar bo'yicha o'rganilish holati.

1.1. Musiqiy ritmik gimnastika haqidagi tarixiy ma'lumotlar.

O'zining tarixiy ildizlari bilan badantarbiya uzoq tarixga borib taqaladi. Xitoyda Xindistonda eramizgacha 4 ming yil avval ritmik mashqlar davolanish maqsadlarida qo'llanilgan. Xitoyda uyda ertalab va kechqurun shug'ullanadigan mashqlar ma'lum. yangi raqs va mashqlar majmuini paydo bo'lishini, tananing xususiyatlari to'g'risidagi fanning asoschisi, frantsuz opera qo'shiqchisi, Frantsuz Delsurt nomi bilan bog'lashadilar. Frantsuz pedagogi Jorj Demeni (1850-1917) fitsnalogiya va jismoniy mashqlar bo'yicha mutaxassis edi. Uning "Jismoniy tarbiyaning ilmiy asoslari" (1903), "Yoshlar jismoniy tarbiyasi" (1917) kabi kitoblarni yozdi. U 1880 yilda Parijda "Muqobil gimnastika" klubini tashkil etdi. U shvedlar, nemislar va boshqa davlatlardagi gimnastika tizimini izchil ravishda o'rgandi va tanqid qildi. U umumrivojlantiruvchi tabiiy mashqlarni (yurish, yugurish, sakrashlar, yuk ko'tarish, osilish, uloqtirish, himoya va hujum mashqlari, qo'l, oyoq, gavda mashqlari va hokozo) bajarishga asos soldi. U bolalarga, yoshlar va xotin-qizlar gimnastika tizimini ishlab chiqdi. Bu bilan gavda harakatlarini fiziologik asoslarga moslashtirish zarurligini takidhladi (4,8).

Jorj Demeni o'ziga xos badan tarbiya mashqlari majmuini tuzib chiqdi. Maqsadga muskullarning ritmik kuchayishi va bo'shashi bilan erishiladi. Sal keyinroq o'zining ritmik mashqlar majmuini Jeneva konservatoriya shfokori Emil-Jak-Dalkros ham yaratadi. U tana bilan xis qilingan ohang, butun tanaga bir vazndagi turtki berishini tushindi. 20-yillarning boshlarida Maskvada Asysedora Dunkan raqs studiyasi tashkil etildi. Dunkanning raqslari erkin plastinkada ko'rilgan edi, uning yordamida raqqoslar o'zlarining xis – xayojonlari va kechinmalarini berishga harakat qilar edilar. Plastik raqs studiyasining paydo bo'lishi, har xil yo'llar bilan insonning o'ziga hos, uyg'un rivojlanishiga, uning jismoniy go'zalligiga, ma'naviyboy bo'lishiga erishishga intildilar. Shunday studiyalardin birini N.L.Alekseeva tuzdi va "Raqs va badantarbiyalar uyg'unligi studiyasi" deb nomladi. Alekseevaning mashqlarida asosiy o'rin – uyg'unlik bilan

rivojlanib kelayotgan gavda uchun mashqlar tanlashga berilgan. Alekseeva “Harakatlar va musiqa orasida ritmik uyg’unlik bo’lishi kerak” – deb aytgan.

Ritmik badantarbiya ayniqsa 80– yillarning boshlarida gurkurab rivojlandi. 1984 – yildan boshlanib har doim ritmik mashqlar darslari televideniya orqali ko’rsatilib bordi.

G’arbda aerobikaning, yulduzlari quydagilar xisoblanadilar: Djeyn Fonda, uning zamonaviy ritmik mashqlarining asosiy boshlovchisi deb hisoblashadilar (AQSH); Sidni Rom, Marlen Sharel (Germaniya).

Ularning tartib usullarining o’ziga xosligi nimada? Djeyn Fondning ritmik mashqlarining usuli asosan atletik yo’nalishga yo’naltirilgan va yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo’lgan odamlar shug’ullanadilar. Jismoniy jixatlarni rivojlantirishdagi mashqlar harakatlarning keng tebranishini va katta hisobdagi qaytarishlar bilan bajariladi va yurak-qon tomirlari sistemasiga va nerv-muskul apparatiga kuchli ta’sir ko’rsatadi (23).

Sidne Romning mashg’ulotlar dasturi badantarbiya mashqlariga asoslanadi, Marlev Sharelniki esa – raqsiy belgilarga ahamiyat qaratgan.

Ikkala dastur ham davomiyligi 12-15 daqiqa bo’lgan katta hisobdagi yugurish, sakrash mashqlarini o’z ichiga olgan. Chet ellarda ritmik badantarbiyaning terminlari xilma-xildir: aerobika, djazbadantarbiya, pop-harakatchanlik va boshqalar.

1.2. Musiqiy ritmik gimnastika mashqlarini tashkil qilish, rejalashtirish va guruhlashtirish.

Musiqiy ritmik gimnastikani tashkil qilish, rejalashtirish va guruhlashtirish, ishni tashkil qilish va guruhlashtirish, huddi shunday ritmik gimnastika bo’yicha rejalashtirish jismoniy madaniyat va sport komita buyrug’iga asosan beriladi. Bunda “Musiqiy ritmik gimnastikadan keng miqyosda jamoalarda va maxsus shaklda darslar tashkil qilish” va turli qarorlar “Jismoniy sog’lomlashtirish guruhlari” kabilar kiradi.

Ritmik gimnastika guruhlari sport inshootlari rahbariyati, jismoniy madaniyati, kengashlari tamonidan muassasalarda o'quv tashkilotlari (maxsus o'rta va oliy ta'lim muassasalarida), shirkot qishloq ho'jaliklarida, turar joylarda, yotoqxonalarda, madaniyat bog'larida, dam olish joylari, sanatoriya-sixatgoh va boshqa tashkilotlarda tashkil qilinadi.

Jismoniy tashkilot kasaba kengashlari, musiqiy ritmik gimnastika guruhlari tashil qilingan bo'lsa bepul holda o'zini sport inshootlarini dars o'tkazish uchun ajratadi va asbob-uskunalarining taqdim qiladi. Musiqiy ritmik gimnastika o'qituvchilar mehnati, maoshi ma'lum ko'rsatmalar asosida jismoniy madaniyat va sport hodimlari maoshini ajratilishi asosida belgilanadi, bunda ularni toifalari murabbiy, o'qituvchi stajlari xisobga olinadi. Musiqiy ritmik gimnastika guruhlarida ishlatish uchun o'qituvchi qabo'l qilishda huddi shunday qaror va ko'rgazma buyruqlardan foydalanish kerak (12).

Masalan, o'quv sport mashqida va yig'ilishlarda sportchilar bilan baxtsiz hollarda kabi qarorlar hisobga olinadi. Ularda maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan kishilar tamonidan dars o'tkazish qat'iyan man qilinadi, bunda joylarda sport kamitetlari tamonidan berilgan ruxsatnoma yoki man qiluvchi hujjatlar hisobga olinadi, huddi shunday tibbiy ko'rikdan o'tmaganlarga ham ruxsat berilmaydi. Musiqiy ritmik gimnastika darsni amaliy o'tkazishga oliy (o'rta maxsus) jismoniy ta'limga ega bo'lgan mutaxassis gimnastlar jalb qilinishlari mumkin, huddi shunday "sport ustasi" unvoniga ega bo'lganlar badiiy gimnastikachi, sport akrobati, sinxron suzish yoki sportni boshqa turlari bo'yicha mutaxassis sifatida malaka oshirish kurslarini ritmik gimnastika bo'yicha o'tganlarga ruxsat beriladi.

Musiqiy ritmik gimnastika darslarini o'tkazish usullari.

Musiqiy ritmik gimnastika bilan yakka va guruh bilan shug'ullanish mumkin. Guruh bilan olib boriladigan darslar mashqlarini bajarishga jalb qilish uchun to'liq kuch sarf qilish va ko'proq harakatlarni talab etadi va muloqot quvonchini keltirib chiqaradi. Yakka yoki o'zi bajaradigan darslar mashq qiluvchilardan katta irodali chiniqish, ichki talab-tartib intizom, o'ziga talabchanlik talab etadi. Agarda mashqlar xoxishsiz bajarilsa xis-xayajonli bo'lsa

darsdan foyda juda bo'sh-sust bo'lib, foydali harakat kaefisenti ma'lum darajada pasayadi. Sharoitda imkoniyatga yarasha harakat ishlab chiqarishda jismoniy rivojlanish darajasini saqlashga, xuddi shunday uni bir qator muvafiqlashuviga ta'sir qiladi. Lekin buni sog'liqni saqlash uchun sport emasligi, patensial ijodiy imkoniyatini yaratishga qaratilgan, yuqori ish imkoniyatini vujudga keltirish kerak.

Hozirgi davrda isbot qilinishicha, mushaklar tizimini yetarli darajada tizimli maqsadga asoslangan xolda, yurak qon tomirlari, suyak bog'lanishlari apparatlari, dam olish tizimi hisobga olinmasa notanish patensial imkoniyati pasayadi, ish davomida charchash tez xosil bo'ladi, kasallanish imkoniyati kengayadi (8,11).

Tanani to'g'ri va chiroyli shakllanishida mushak tizimi katta vazifani bajaradi. Tana to'g'riligi-garmonik (xar tamonlama) rivojlanishi zaruriy asosiy qismi, rivojlangan shaklidir. Uni tasnifi yelkalarni to'g'ri simmetrik joylashishi ichkariga tortilgan, qorin bo'shlig'i, umurtqa suyaklarini to'g'ri fiziologik egiluvchanlik, yonboshga qiyalash yo'qligi, tana to'g'rilik holatiga erishish tana mushaklarini yahshi rivojlantirishga bog'liq.

Musiqiy ritmik gimnastika o'qituvchi sog'lom hayot tarzi tashviqotchisi hisoblanadi. Shuning uchun ular o'z ishiga ijodiy yondoshishlari mashq qiluvchilarga nisbatan talabchan va shu vaqtda diqqat e'tiborli va ochiq ko'ngil bo'lishi kerak.

O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri do'stona to'plangan jamoani tashkil qilish, doimo guruh a'zolar0i kayfiyatini kuzatish, chunki yahshi kayfiyat, xayot quvonchi nerv buzilishlarida, strassda ularni eguvchi xisoblanadi va umumiy xayot tonusi (kuchi-quvonchini) ko'taradi va darsni sog'lomlashtirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Ilmiy tadqiqot bilan aniqlangan, musiqiy ritmik gimnastikani foydali tamoni uch tamonlama amalgam oshiriladi;

- yoki 15-20 sonyadan shug'ullanib, lekin haftasiga 5-6 marta;
- yoki 30-40 sonyadan haftasiga 3 marta;
- yoki 45-60 sonyadanhaftasiga 2 marta.

Bunday holatda 3-4 oydan keyin ma'lum darajada foydali tamoniga erishish mumkin, aynan:

-maxnat unumdorligini oshirish, og'irlikni pasaytirish, kuch ko'rsatkichlarini oshirish, suyaklarda harakatchanlik.

Musiqiy ritmik gimnastikani o'tkazayotgan, boshqa jismoniy sog'lomlashtirish guruhlaridagi kabi, jismoniy tarbiya tizimida umum metodik tamoyillarini qo'llash shart:

Onglilik va faollik tamoyili - Mashq qiluvchilar aniq maqsad va vazifalarni tushinsin, dars vazifasi, o'qituvchi nima uchun shunday vositani tanlaganini va dars uslublarini tushinsin, ongli ravishda ta'lim-trenirovka ishlariga yordamlashsin, o'z ustida va vazifa bo'yicha;

Tizimlilik tamoyili - pedagogik jarayonni doimiylik, katta va kichiq bosimdalik, shuni ham hisobga olish kerakki, musiqiy ritmik gimnastikada mashqlar to'xtovsiz bajariladi. Bunda kuchlanish va bo'shashish bir- birlari bilan izma-iz keladi, huddi shunday nafas olishi tiklanadi;

Ketma-ketlik tamoyili - oddiydan murakkabga, yappasiga (qatoriga) – birgalik (patok) uslubida juda zarur va musiqiy ritmik gimnastikada bironta mashqni ikkinchisi bilan almashishida uzluksizlikni ta'minlaydi;

Bosqichlilik tamoyili - shu davrda mashq qiluvchini jismoniy tayyorgarligini hisobga olish va imkoniyatiga yarasha bosim berish;

Oddiy ma'lum jismoniy mashqlar, lekin mashq qiluvchi uchun qiyinchilikni yengib o'tish kaefitsentini aniqlash bilan;

Ko'rgazmalilik tamoyili - musiqiy ritmik gimnastikada asosiy hisoblanadi, shuning uchun o'qituvchi uni yahshi bilishi kerak, ya'ni mashqlarni to'g'ri chiroyli, his-hayajonli, ta'sirchan ko'rsata bilishi kerak va mashq qiluvchilarni oyna orqali va musiqa bilan qo'shilgan holda o'z-o'zini nazorat qilish;

Musiqiy ritmik gimnastika o'ziga xos ekanligini hisobga olish tamoyili - musiqiy ritmik mashqlardan fodalanishda aniq holat ko'rgazmalardan harakatlar va

raqs ta'siridan huddi shunday anjomlardan (to'p, bo'kchigich, chanbarak, doira) ko'tarish kabilardan foydalanish (9,14).

Jismoniy rivojlanish darjasini kuzatish uchun, test orqali hisob chiqarish kerak, bunda asosan quyidagilardan foydalanish mumkin;

- 1) Oldinga egilish qo'l kafti qo'lga tegsin;
- 2) "Ko'prik" orqaga yotgan holatdan;
- 3) Orqaga egilish qo'llar balandga;
- 4) Egilish o'ngga va chapga;
- 5) Yozilgan oyoq ustida tik turish, qo'llar balandga (pastga), ko'zlar berkitilgan;
- 6) Bir oyoqda tana muvozanati, boshqasi orqaga, ko'zlar berkitilgan;
- 7) Kaftda tik turish;
- 8) Burchak bilan o'tirish;
- 9) Tayanib yotgan holatda qo'llarni bukish va yozish.

Ko'rsatilganlarni qiyoslash ishlab chiqilgan darsni baholashi imkonini beradi va ba'zi bir kuzatishlar kiritadi. Tizimli ravishdagi darslarda mashq qiluvchilardagi ko'zga ko'rinadigan yutuqlar 3-6 oyda ma'lum bo'ladi. Tetiklik, kayfiyatini ko'tarish, istagi ishdagi muvaffaqiyatlar, yahshi uyqu, to'g'ri tana tuzilishi paydo bo'limlari namoyon bo'ladi (25 yoshga yaqinlashib qoladi).

Musiqiy ritmik gimnastika darslari uchta qismdan: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlar zichligi 10-20 %, 85-70 %, 5-10 % bilan ritmik gimnastikada dars boshlashdan oldin o'zining yuqori darajadagi tomir urishini aniqlash zarur.

Yuqori darajadagi tomir urishi bu past darjadagi yurak siqilishi chastotasi (ko'rsatkichi) bu asosda yuqori darajali sog'lomlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday tomir urishini aniqlash uchun oldin yuqori darjali tomir urishi aniqlanadi: erkaklarda 205 dan yarim yoshini xisobdan olib tashlash bilan, ayollarda 220 dan jami yoshini xisobdan olib tashlash bilan (8,19).

Yuqori darajali tomir urishi past darajadan 80 % ga teng: masalan, erkaklarda 50 yoshida yuqori darjadagi tomir urishi 20-25 daqiqasiga 180 ta urish, ayollarda esa 20-22 daqiqasiga 170 ta urish, demak erkaklarda yuqori darjadagi

urish 180-144 gacha , ayollarda 170-130 gacha. Agarda dars davomida tomir urishini yuqori darjaga ko'tarish va bu tartibda saqlab turish 29 daqiqadan haftasiga 4 marta bo'lsa, bunday holda a'lo darajadagi kislarodli va mashq qilish imkoniyati hisoblanadi. Lekin, huddi shunday imkoniyatga past tomir urish jarayonida ham erishish mumkin, masalan: daqiqasiga 120 ta urish lekin uni 30 sonya davomida saqlash yoki yuqoriroq 150 urish sonyaiga, lekin 10 daqiqa davomida saqlash hudi shunday haftasiga 4 marta.

Tomir urishni nurli, uyqu peshona tomirlarida, yurak urishda sanash mumkin: 10 soniyada hisoblash keyin 6 ga ko'patirishyahshi. Endi boshlovchilar uchun kirish darsi o'tkazish shart, unda o'qituvchi mashq qiluvchilar bilan umumlashgan kompleksdan ayrim mashqlarni o'rganadilar, sekin harakatlarni ko'rsatadi, ular mohiyatini tushuntiradi, mashqni tanada ta'sirini ko'rsatadi. Mashqlar boshlanishida hisob orqali bajariladi, egallab boorish darajasitga qarab, musiqa bilan bajariladi. Bu darsda o'qituvchi mashq qiluvchilarni, uslublarni e'lon qiladi.

Agarda mashq qilish vaqtida mashq qiluvchi kishi yuklama uni kuchiga yarasha emasligini sezsa u to'xtashi kerak va chekkaga chiqishi, dam olishi sekin vazmin nafas olishi keyin yangidan mashqni davom qilishi mumkin.

Agarda ma'lum mashqlar qiyin uddalansa tavsiyalar ertalabgi gigienik gimnastikada qatnashishlari mumkin yo'nalishida beriladi.

Tayyorgarlik qismi-tubandagi vazifalarni bajaradi; darsni tashkil qilish, faol faoliyatga tayyorlanish (11,18,19).

Darsni bu qismi tanani fiziologik tayyorgarligini ta'minlaydi va asosiy qismini yuqori darajada o'tkazishimkoniyatini yaratadi.

Unda haddan tashqari kuchli va yuqori bosimli jismoniy mashqlar berish mumkin emas, chunki ular haddan tashqari holda nerv tizimini uyg'otadi yoki tushkunlik holatini keltirib chiqaradi. Tizimga ko'ra oddiy mashqlar berish kerak.

Musiqiy ritm mushak faolligiga ta'sir qiladi, bu bilan propiosentik (tana usti qismi) impulsar oqimini kuchaytirib, huddi shunday ichki tana qismlarini

omilini (vazifalarini)o'zgartiradi (Polyakov.B.B 1968. Mashqov.V.N1988, Afanas'eva G. F 1986, 1988).

Musika sog'lom va nosog'lom inson tanasini aqliy faoliyat holatini ko'taradi, musiqiy ritmik mashqlar bilan kirishib ketish inson tanasi buzilishi omilini qayta tiklaydi.

1.3. Musiqiy ritmik gimnastika mashqlarining mazmuni va ahamiyati.

Sog'liq bu faqat oddiy jixatdan kasalliklarni yo'qligi bo'lib qolmasdan bu jismoniy, ruxiy va ijtimoiy yutuqdir. Ruxan va jismonan baquvvat inson baxtliligini o'z-o'zini a'lo darajada sezishi, o'z ishidan qonikish xosil qilishi, o'zini o'zi tamonidan rag'batlantirib borishi, o'zini yoshlardek sezishi va ichki go'zalligidandir. Shuni takidlash o'rinlidirki, xozirgi davr ilm-fani sog'liqni ta'riflashda kasallikni mavjudligi yoki yo'qligi nuqtai nazaradan qarab emas, insonni yuqori darajadagi yuqori jismoniy, ruxiy, ijtimoiy omillarni mavjudligidan kelib chiqadi.

Tibbiyot nazariyasi sog'liq ma'lum darajadagi ruxiy xolat ekanligini ham uqtiradi va inson qobiliyati yuqori darajada moddiy va ma'naviy talablarni qoniqtiradi deb ko'rsatadi. Kasallik bunday jarayonlarni buzadi. (V.P.Petlenko).

Musiqiy ritmik gimnastika jismoniy mashqlar tana va insonni fazoviy, ijtimoiy jarayon tizimini yuqori darajada rivojlanishiga samarali omil xisoblanadi. Jismoniy faollik xozirgi davr kishisini sog'lom hayot tarzini shakillanishida zaruriy omil xisoblanadi. Inson shaxsi birinchi navbatda bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Tanadagi ruxiy va jismoniy kuchlarni birlashishi sog'liq zaxiradagi kuchayishiga yordam beradi va uning ijodiy muvofiqlashuviga sharoit yaratadi. Hayotni juda tez oqimi, aholi zichligi, insonlar munosabatlarining jipslashib borishi, axborotlarni xaddan tashqari ko'pligi asabiylashuv xolatlar oqimini keltirib chiqaradi va kishilarga doimo ta'sir qilib turadi. Inson bunday ta'sir kuchga qarama-qarshi nima qilishi mumkin? Javob bita va javob aniq – hayot tarzining jadallik bilan o'sib borishi, texnika va kamyuter texnologiyasini rivojlanishi XXI asr odamini kam harakatchanlik hayot tarziga olib keldi.

Tana kuchini to'ldirmaydigan xissiy jo'shqinlik va ko'pgina ruxiy stresslar bo'lishi mumkin; Gipodinamiya kam harakatlilik inson tanasini kuchsizlantiradi va chegaraviy xolatni boshlanishiga olib keladi. Bu sog'liq va kasallik orasidagi xolatlar tavsiyalanishiga; charchash, doimiy tarzda bo'lmagan bosh og'riqi, mexnat faoliyatini susayishi, uyqu buzilishi kabilar kiradi va keyin asr kasalligiga aylanishi mumkin; Gipertonik kasalliklar; yurak xurji, yurak ishemik kasalliklari, miya qon aylanishi buzilishi, ruxiy va qorin yara kasalliklari kabilar oldida biz ba'zan qo'llarni xar tamonga yoygan xolda nervlar yoki ruxiyat deymiz. Ulardan qutilish harakatdadir. Bu savol yuzasidan xozirgi kunda tibbiy xodimlar ham biologlar ham satsiologlar ham ish olib bormoqdalar. Fiziologiyadagi keyingi tadqiqotlar ko'rsatishicha mushaklarning aerob kuchini yuqori darajaga o'sib borishi bilan yurakishi kuchayadi va tanani kislarod bilan ta'minlaydi. Bu izlanishlarni hammasi sport fiziologlarning «Aerobika»ga ya'ni kislorod mavjudligi bilan ishlashga olib keldi. Musiqiy ritm harakatlarni tashkil qiladi, mashq qiluvchini kayfiyatini ko'taradi, ijobiy xislar harakatlarni tezroq bajarishga intilishni xosil qiladi, bular tanaga ta'sirini kuchaytiradi. Ritmik gimnastika – atletik yo'nalishga ham ega bo'lishi mumkin. Bu jarayon qachonki harakatlarda mashqlarga chidamlilik o'tib ketsa u raqs egiluvchanligi ham bo'lishi mumkin. Eng unumli yo'nalish bu mashqlarni ta'luqli tanlash bilan aralshgan xolda ikkala yo'nalishlarni bir birlari bilan qo'shilishida namoyon bo'ladi. Bu mashqlarni hamma turlari ritmik musiqani o'rta tezligi bilan yo'naltirilishda, mushaklarni ko'plik guruhlarini qo'shilishi asosida chidamlilik ishlab chiqiladi, ritmiklik o'stiriladi, yurak qon tomir tizimini kuchaytiradi va umumiy ishchanlik xolatini ko'tarib butun xolda sog'liqlikni yaxshilaydi, innsonni hayotiy faoliyatini uzaytiradi (13,17,19).

Erkak va ayollar ritmik gimnastika bilan yakka va guruh tartibda shug'illanishi mumkin, chunki mashqlarning katta qismi bir joyda bajariladi, darslari turli xajmdagi xanalarda ham o'tkazish mumkin. Bular ritmik gimnastika yutug'idir, lekin xonalar xavosi tozalanib, xavo xarorati 16-18,0 Sdan oshmasligi kerak, yuvinish va kiyinish xonasiga ega bo'lishi shart.

Ritmik gimnastika bu umumimqoniyatli, hammaga mos aholini yuqori darajada samarali jismoniy sog'lomlashtirish shaklidir. Barcha jismoniy sog'lomlashtirish shakillari kabi ritmik gimnastika ham sog'lomlashtirish bo'yicha yugurish, suzish va bir qator vazifalrni amalga oshiradi.

- aholii sog'ligini mustahkamlash,
- harakat omilini saqlash va qayta tiklash hamda umumiy ishchanlikni nazarda tutish,
- ijodiy uzoq yil hayot ko'rishni saqlash,
- faol dam olishni tashkil qilish va sog'lom kun tartibi,
- doimiy mashqlarga aholini ko'pchilik qismini jalb qilish,
- turli talab va me'yorlarni bajarishga tayyorlash kabilar kiradi.

Musiqiy ritmik gimnastikani jismoniy sog'lomlashtirish turlari bilan kelib ketishi sog'lomlashtirish va ishchanlik imkoniyatlarini yuqori darajaga ko'tarishda yanada katta imkoniyat yaratadi, lekin Musiqiy ritmik gimnastika o'zining farq qiluvchi xususiyatiga ega, boshqa mashq turlari bilan taqqoslashda ular aniq namoyon bo'ladi, aynan;

- mashqlarni bosqichli tasniflashda foydalanishda chidamlilikni ishlab chiqishda (yugurish, sakrash, raqs qismlari);

- turli harakat tezligini almashishda aynan 48-60 daqiqadan 120-130 daqiqagacha harakatida bir turdagi harakatni ko'p marta qaytarish bilan, ya'ni 8dan 32 martagacha musuqiy yo'nalishga muvofiq ravishda yuqori darajadagi zichlik 60-80% qachonki hama mashq qilgan tagdirda navbatni kutmaydi, bu mashq qiluvchilarni mashqqa berilib ketganligini ketirib chiqaradi;

- harakatlarni va kampazitsiyani rejalashtirish va tayyorlash, ijodiy egiluvchanlikka e'tibor qilish;

- harakatlarni aniqlash, harakat talabiga mosligi;

- darslarda xozirgi zamon ritmik musiqadan foydflanish kabilar xissiy imkoniyatlarni oshiradi.

Musiqiy ritmik gimnastika mazmuniga xozirgi zamon musiqasi yangicha oqim kirib keldi. Musiqiy ritmika boyib borishida fiziologiya yo'nalishidagi

bilimlar, mushaklar faoliyati, jismoniy sifatlarning o'sib borishiga ham o'z xissasini qo'shdi.

1.4. “Aerobika” atamasi va aerobikaning kelib chiqishi hamda ritmik badantarbiya vazifalari.

Musiqiy ritmik gimnastika musiqa ohangida bajariladigan jismoniy yurish, yugurish, sakrash kabi mashqlar yig'indisi xisoblanadi. Ritmik gimnastika sog'lomlashtirish maqsadida qo'llaniladi xuddi shunday aerobika nomi bilan ham mashhur.

Insonni har tamonlama jismoniy rivojlanishida, kasbiy, jismoniy tayyorgarligi mehnat faoliyatini muvofiqiyatli sharoit uchun zarurat yaratadi va uni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni uchun ijodiy yondoshish imqoniyatini yaratadi. Bugun sog'lomlashtirish jismoniy va sport ishlarini o'tkazishda an'anaviy shakllari va uslublarini rivojlantirish hamda yangilarini hayotga tadbiq qilish kerak. Harakat faoliyatini oshirish inson salomatligi uchun juda zarur ekanligi xech kimda xayratlanish xissini tug'dirmaydi. Qanday vositalar orqali gipodinamikani to'ldirish, qanday yuklama bilan shug'ullanish kerakligiga doir masalalar munazarali masala bo'lib kelmoqda. O'z mehnati bilan ishlashda ma'lum bir jismoniy rivojlanish natijalariga erishish quyidagi turli vositalar yordamida: yurish, velosipedda yurish, suzush, gimnastika mashqlari, aerobika kabilar orqali amalga oshiriladi. Shulardan samarali xisoblangan “Aerobika” sport turiga aloxida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir (9,10.13).

“Aerobika” atamasi “aerobniy” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ya'ni kislarodli (xavoli) degan so'zni ifodalab, yunon tilidagi “aero” – “havo” “bons” – “hayot” degan ma'noda birinchi marta doktor K.Ko'per tamonidan kiritilgan. K.Ko'per ommobop jismoniy mutaxassisi sifatida Amerikada o'ziga xos mashxurlikka ega bo'lgan. Ma'lumki, mushaklarni harkatga keltirishda modda almashuvi ma'lum bo'lib o'ziga xos mukammal kimyoviy reaksiya tizimini xosil qiladi. Mukammal maleqo'lalarni maydalanib, juda oddiylashib borish jarayoni sintez (umumiydan yakkaga)jarayoni bilan muvofiqlashadi, narsalarni mukammal

energiyasini (harakatini) yaryatadi. Bu jarayonlardan biri faqat havo bosimi mavjudligida, aerob sharoitida harakatga kelishi mumkin. Aerob jarayonida yuqori darajadagi energiya soni ishlab chiqiladi, bu esa anaerob reaksiyasidan yuqoridir. Aerobni qo'llashda gaz va suv energiyani ishlab chiqishda tarqalishning asosiy maxsuli xisoblanadi. Nafas olish va terlash orqali tanadan engil chiqarib tashlanadi. Mashqlar davomida kislaroddan foydalanishni kuchaytiruvchi harakat faolligi xisoblanib, u turli siklik (davriy) harakatlarga mansub bo'lib, uzoq muddatli vaqt davomida ancha yuqori bo'lmagan harakat tezligida bajariladi.

Keyinchalik AQSh va G'arbda aerobika turli yo'nalishlarda rivojlanib bordi: ular aerobik raqslar, aerobik gimnastika, D Jeyin Fond aerobikalari, sten-aerobika, teyin-aerobika va boshqalardir. Ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra bir-biridan ancha farq qilmaydi. Mohiyatiga ko'ra ular bir shaklda mujassamlashgan bo'lib, mashqlarni ritmik (ohangdor) gimnastika turida o'tkazishda hamohanglikda, umumta'lim maktablari, kollejlari va Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi (11,19).

Qorin mushaklari pressi (sqimi) harakatli raqslar, sakrash bilan faol ishlash qo'irn ichak trakti ishiga, uni mator faoliyatini to'g'irilash va funktsiyalarga ta'sir qiladi. Mashqlarni tizimli ravishda uzoq muddatli bajarib boirsh (etarli tezlikda) yurak urish kattaligi imqoniyatlarini maksimal darajaga ko'taradi. Yurakni mal'um vaqtga bo'shashtirish darajasi ko'payadi: ma'lum bir jismoniy yuklamaga nisbatan puls (tomir urish) reaksiyasi pasayadi. Umummiy o'zini sezish ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Ritmik gimnastika bosh miya funktsiyalariga (faoliyatiga) ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tanaga ta'sir qilishiga ko'ra uni shunday sikl mashqlari bilan, yugurish, chang'ida yugurish, velosapedda yurish kabilar bilan tenglashtirish mumkin. Ya'ni mashg'ulotlar davomida mushaklarni xavo xajmi o'sib boradigan mashqlarga tenglashtirish mumkin. Aynan uni ikkinchi nomi aerobika kelib chiqqan.

Ko'pgina vrachlar ritmik gimnastikani qizlar uchun mohiyati katta deb biladilar va bola tug'ish vaqtiga ta'luqli ayollarni ham shu turga kiritadilar. Chunki bunday mashqlar toz chuqurligining qorin devorlari mushaklarini mustaxkamlaydi.

Bundan tashqari hamladorlikni keyingi davrlarida tug'ilishda toz suyaklarini ajralishi ba'zi bir joylarda bir-biriga kirishib ketishi va ularni munosabatida bir – birlari bilan aralashib ketishlari mumkin. Natijada kichiq tozni chiqish doirasi kengayadi, xomilani harakati engilashib ritmik gimnastika mashqlari toz qismi uchun raqs xarakterida bo'lib gilam ustida bajarilishi, tozni suyaklari apparatlarini bog'lovchi mashq hisoblanadi, uni cho'ziluvchanligini mukammallashtiradi. Ritmik gimnastika hammaga ham foydalimi? Bizning jamiyatimizga aerobikaning kelib kirish davri bilan u bilan sport zallarida shug'ullanishga intilishi ko'proq ayollar qiziqishini jalb qiladi. Bu guruhda bir qator yoshlarga mos ayollar birgalikda shug'ullanishar edilar. Shunda ayon bo'ldiki hamma uchun bir turdagi mashg'ulot barchaga bir xilda foyda beraolmas ekan. Vrachlar ko'rsatishicha musiqiy oxangdagi tezlik, xuddi shunday ko'pgina kompleks mashqlar harakat davomiyligi – ba'zi bir ayollar, aynan o'rta yoshdagi ayollar tamonidan yomon o'tkazilar ekan (9,10,17).

Ba'zi bir hollarda elektradiogrammani ko'rsatkichi yurak qon aylanishi tizimida uni faoliyat tizimida buzilishlarini ifodalaydi. Tanada kislat JELCh tengligida ham yoqimsiz siljishlar paydo bo'ladi. Ba'zi bir tomir urish chastatasi (tezligi) daqiqada 100-110ga chiqib kislarod (havo) bilan ta'minlashda chegaradan chiqib ketgan. Ya'ni aerobika aerobikadan chetga chiqib qoladi. Albatta kimgadir oxang gimnastikasi kuchidan tashqari bo'lsa, bu insonlar yopiq tarzdagi salomatligi buzilgan kishilar edi. Me'yorda og'ish amaliy jixatdan sog'lam kishilarda ham uchraydi. Bo'larni hammasi oxang gimnastikasi mashg'ulotlarini ko'rsatkichlariga differentsial (qiyosiy) yondoshishni talab etadi, ya'ni turli yoshdagilar guruhlarini shakllantirish, ya'ni uslublarini izlab topish zaruriyatini yaratadi.

Bugungi kundi mutaxxassislar tamonidan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar, o'smirlar, qizlar, katta yoshdagi shaxslar (25-35 va 36-60yosh) uchun bir qator ohang gimnastikasi mashq komplekslari yaratilmoqda. Ular insonlarni funktsional (tana) xususiyatlari va yoshini xisobga olgan xolda ishlab chiqilgan bo'lib ular mashqlarni fiziologik ta'siriga yo'naltirilgan, musiqiy

kuzatishni turli ohangda o`ziga hoslikda bajarish va musiqiy aktsentini (urg`uni) sonin nazarda tutadi. Umumiy tarzda asosiy ta`lab – musiqani ohangdor va ematsional (xis-xayajon)ligi saqlanib qoladi. Inson ruxiyatiga ohangdor gimnastikani ematsional ta`sir qilishi imqoniyatini diqqat nazarda tutgan xolda mutaxxassislar uni dovolash amaliyotiga kirita boshladilar. Bu jarayon interval seriya (ko`rinishda) uslubida hayotga tadbiiq qiligadi. Uni amalga oshirishda kompleks mashqlar ko`pgina dam olish pauzasi bilan amalga oshiriladi. Ohangdor gimnastika – bunga murakkab bo`lmagan umumrivojlantiruvchi mashqlar majmuasi, ular dam olishsiz, tezlikda, aniq zamonaviy musiqa asosida bajariladi. Ohangdor gimnastikani asosiy o`ziga jalb etuvchi kuchi uni asosiy xususiyati – musiqa, harakatlariga uni ohanggiga bo`y sundirish. Oxandor gimnastika musiqiy ohangdor tizilma tarbiyasi . Emil Jak Dalkraz tomonidan tashkil qilingan. Uslub mazmuni ohangdor idrokni rivojlantirishiga – vaqtni idrok qilishga qaratilgan bo`lib, boshqacha aytganda insonni nervlar bilan musiqiy faoliyati bir- biriga hamohangligini rivojlantiradi, bular orqaga insonni eng mukammal, harakatlarida ham avtomatlashtirilgan holatga erishish imkonini yaratadi. Dalkroz tizimi diqqat va xotira mashqlarini rivojlanishiga yordam beradi. Ohangdor gimnastika tarbiya uslublarini shakillanishi 1900-1912 yilga taluqli bo`lib, boshlang`ich nomi–faire les pas “qadamlarni bajarish”, keyin ohangdor gimnastika, “gimnastika” soziga xos uslub oddiy sport gimnastikasi bilan aralashtiriladi. Dalkroz “ohang” sozida to`xtaladi. Buggingi kunda esa har ikkala iboradan foydalaniladi (8,9,11).

